

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHUKRULLOZODA ROZA SHUKRULLO QIZI**

**SAMARQAND VILOYATINING BA'ZI YOVVOYI LOLALARINI**  
**MIKROKLONAL KO'PAYTIRISH BIOLOGIYASI, O'SISHI VA**  
**RIVOJLANISHI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации кандидата наук (PhD)**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Shukrullozoda Roza Shukrullo qizi**

Samarqand viloyatining ba’zi yovvoyi lolalarini mikroklonal ko‘paytirish biologiyasi, o‘sishi va rivojlanishi .....3

**Шукруллозода Роза Шукрулло кизи**

Биология микроклонального размножения, рост и развитие некоторых дикорастущих тюльпанов Самаркандской области.....21

**Shukrullozoda Roza Shukrullo qizi**

Biology of microclonal reproduction, growth and development of some wild tulips of the Samarkand region.....41

**E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publishe works.....45

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHUKRULLOZODA ROZA SHUKRULLO QIZI**

**SAMARQAND VILOYATINING BA'ZI YOVVOYI LOLALARINI  
MIKROKLONAL KO'PAYTIRISH BIOLOGIYASI, O'SISHI VA  
RIVOJLANISHI**

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/B1218. raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o'zbek, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.botany.uz](http://www.botany.uz)) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Dexqonov Davron Burxonovich**

biologiya fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xamrayeva Dilovar Tolibjanovna**

biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Turgunov Mirabdulla Dexkanovich**

biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil " " kuni soat dagi majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: [www.botany.uz](http://www.botany.uz)).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (75-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati tarqatildi " " 2025.

(2025-yil « » dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi).

**K.Sh. Tojibayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
Kengash raisi, b.f.d., akademik

**A.V. Maxmudov.**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
Kengash ilmiy kotibi, PhD.,  
katta ilmiy xodim

**X.F. Shomurodov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
Kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** *Tulipa* L. *Liliaceae* oilasiga mansub estetik jozibadorligi va turlarining genetik xilma-xilligi bilan ajralib turuvchi turkum hisoblanadi. Bu xususiyatlar turkum turlariga dunyoning turli burchaklarida amaliy va ilmiy jihatdan katta qiziqish uygʻotadi. Gollandiya dunyo boʻylab lola piyozlari savdosi boʻyicha yetakchi oʻrinni egallaydi va ushbu sohaning moliyaviy hajmi bir necha milliard yevroga yetadi. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN, 2024) maʼlumotlariga koʻra, hozirgi vaqtda mavjud 68 ta lola turlaridan 27 turning populyatsiyasi qisqarib bormoqda. Ayni paytda oʻsimliklar biologik xilma-xilligini, jumladan *Tulipa* turlarini *in situ* va *ex situ* sharoitlarida saqlab qolish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qoʻllash, samarali muhofaza strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Turli tabiiy sharoitlarda lolalarning keng tarqalgan arealini hamda ularning hayot tsiklining – urugʻdan boshlab yetuk oʻsimlikka aylanishigacha boʻlgan uzoq davomiyligini inobatga olgan holda, zamonaviy himoya yondashuvlari ayni muammolarni bartaraf etishga yoʻnaltirilgan va yuqori darajada amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari madaniy lolalarning yovvoyi ajdodlarini mikroklonal koʻpaytirish boʻyicha tadqiqotlarni faol olib bormoqda, chunki ularning biologik xilma-xilligini *in situ* va *ex situ* sharoitlarida saqlab qolish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, samarali saqlash yondashuvi sifatida *ex situ* sharoitida oʻsimlik eksplantlarini sterilizatsiya qilishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqishga, ularni *in vitro* sharoitida koʻpaytirish uchun optimal ozuqa muhitlarni yaratishga, shuningdek, tashqi tuproq-iqlim sharoitlariga moslashtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqot madaniy lolalarning yovvoyi ajdodlari genofondini saqlab qolishga qaratilgan samarali biotexnologik yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini ochadi va ularning koʻpayishi hamda rivojlanish biologiyasi yoʻnalishlarida yangi ilmiy asoslarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida 33 turdagi lola turlari aniqlangan boʻlib (Tojiboev va bosh., 2022), ulardan 19 tasi Qizil kitobga kiritilgan (Xasanov, 2019). Turlarning asosiy qismi Garbiy Tiyon Shon va Pomir-Oloy togʻ tizmalarida tarqalgan. Respublikamizda *Tulipa fosteriana* W.Irving holati ham *Tulipa ingens* Hoog noyob turlar tarqalgan Zarafshon tizmasi aholi soni nisbatan kichikligiga qaramasdan mazkur turlar populyatsiyasi soni keskin kamayishda davom etayotgan hududlardan biri hisoblanadi (Dekhkonov va boshq., 2023). Hozirgi vaqtda Oʻzbekistonda iqtisodiy ahamiyatga ega boʻlgan oʻsimliklarni koʻpaytirishda *in vitro* usullari muvaffaqiyatli qoʻllanilayotganini inobatga olgan holda, mazkur tadqiqotning dolzarbligi yovvoyi *Tulipa* turlarini respublika hududida saqlab qolish maqsadida ularni *in vitro* sharoitida mikroklonal koʻpaytirishga oid ilmiy ishlarning mavjud emasligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya natijalari maʼlum darajada Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992-yil 9-dekabrda 754-sonli “Tabiatni muhofaza qilish

to'g'risida<sup>1</sup>”gi Qonun, 2016-yil 21-sentabrdagi 409-sonli “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida<sup>2</sup>”gi Qonun, 2020-yil 25-noyabrdagi PQ–4899-sonli “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida<sup>3</sup>”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, 2021-yil 1-apreldagi PF–6198-sonli “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida<sup>4</sup>”gi Prezident farmoni, shuningdek, 2019-yil 30-oktabrdagi PF–5863-sonli “2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida<sup>5</sup>”gi Prezident farmoni hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ekologik muhofaza vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** *Tulipa* L. turkumiga mansub turlar morfologiyasiga oid tadqiqotlar Regel E.A. (1873), Baker J.G. (1874), A.И. Введенский (1935), Hall A.V. (1940), З.П. Бочанцева (1962), A.И. Введенский va И.М. Ковалевская(1971), A.A. Иващенко (2005), Everett D. (2013), И.Н. Ворончихина (2020), M. Podwyszynska (2020), D.B. Dekhkonov (2022), K.Sh. Tojibaev (2022), İ. Eker (2022) tomonidan olib borilgan bo‘lib, ular ushbu turkumning morfometrik xususiyatlarini tushunishda muhim ilmiy hissa bo‘lib xizmat qilgan.

*Tulipa* turkumiga mansub turlar fitogeografiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar З.П. Бочанцева (1962), К.Ш. Тажибаев va У.Р. Кадыров (2010), D. Everett (2013), К.Ш. Тажибаев va Н.Ю. Бешко (2014), К.Ш. Тажибаев va др. (2022), T. Asatulloev va boshq. (2023) tomonidan amalga oshirilib, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning rivojlanishiga munosib hissa qo‘shgan.

Turli xil lola turlarini *in vitro* usuli yordamida mikroklonal ko‘paytirish bo‘yicha tadqiqotlar bir qator olimlar tomonidan olib borilgan, jumladan: N.A. Wright va R.G. Alderson (1980); E. Gabryszewska va M. Saniewski (1982); E.F. Alderson va boshqalar (1983); B. Aubert, G. Weber va N. Dorion (1985); Y. Nishiuchi (1986); M. Hulscher va boshqalar (1992); A. Kuijpers va M. Langens-Gerrits (1997); Y.D. Sharma va Sh. Bhushan Kanwar (2003); M. Podwyszyńska (2005); G.J. Minas (2007); A.Sh. Ahmetova (2009); M. Maślanka va B. Prokopiuk (2019); B. Musadiq va boshqalar (2020); M. Podwyszyńska va A. Marasek-

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 9-dekabrda “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida” № 754 Qarori

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-sentabrdagi “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida” PQ № 409 Qarori

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida” № PQ–4899 Qarori

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida” № PF–6198 farmoni

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” № PF–5863. farmoni

Ciołakowska (2020); I.A. Majid va I.A. Draaj (2020); D. Sochacki va boshqalar (2023); Y. Sara va B. Margherita (2024); N.N. Salybekova va boshqalar (2024). Biroq, bugungi kunga qadar O'zbekistonda keng tarqalgan Lola turlarining yovvoyi ajdodlari uchun *in vitro* sharoitda mikroklonal ko'payish texnologiyasi ishlab chiqilmagan.

Biologik xilma-xillikni saqlash masalalariga oid tadqiqotlar Qiang (2003), C.S. Reynolds (2006), F. Eigenbrod (2009), Kanwar (2010), Hunter (2011), Squires (2013), M. Ashraf va boshq. (2012), D. Squires (2013), Marchese (2015), Volis (2016), Wilson va boshq. (2021), Kumari (2021), Y. Zhang va boshq. (2023), D.B. Dehkonov (2023) tomonidan amalga oshirilib, o'simliklar xilma-xilligini saqlab qolish bo'yicha ishlab chiqilgan strategiyalar va amaliy chora-tadbirlarning chuqur tahlilini o'z ichiga oladi.

Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasida *T. fosteriana* va *T. ingens* yovvoyi turlarining morfometrik xususiyatlari, fitogeografiyasi hamda ontogeneziga oid tadqiqotlar olib borilgan. Erishilgan natijalarga qaramay, ushbu turlar eksplantlarini *in vitro* sharoitida yetishtirishda yashashga layoqatli o'simlik namunalari sterilizatsiya qilish, ozuqa muhitlarini optimallashtirish, ildiz hosil bo'lishini rag'batlantiruvchi stimulyatorlardan samarali foydalanish, *ex vitro* sharoitiga moslashtirish jarayonida tuproq xususiyatlarini hisobga olish va mikroklonlarni *ex situ* muhitiga muvaffaqiyatli ko'chirish bilan bog'liq masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Bundan tashqari, mazkur turlar kamyobligi hamda ularning tarqalish areallarida antropogen bosimning yuqoriligi inobatga olingan holda, ularning populyatsion dinamikasini bioklimatik modellashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan yo'nalishlarni kompleks ilmiy o'rganish biotexnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek, *Tulipa* L. turkumiga mansub tabiiy populyatsiyalarni muhofaza qilish va tiklashning barqaror mexanizmlarini ishlab chiqishda strategik ahamiyat kasb etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqotlari "Genetika va biotexnologiya" kafedrasining 2020-2025 yillarga mo'ljallangan "Zarafshon vohasining genofondi asosidagi biotexnologik potensialini o'rganish" va Botanika kafedra ilmiy tadqiqotlar rejasiga ko'ra №SBio-03 "Janubiy-G'arbiy O'zbekiston florasining biologik xilma-xilligini o'rganish, innovatsion tadqiqotlar olib borish va ularni muhofaza qilishning biologik asoslarini aniqlash" mavzulari asosida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** – Samarqand viloyatida tarqalgan kamyob *T. ingens* va *T. fosteriana* turlarini *in vitro* sharoitida mikroklonal ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqish hamda ularning introduksiya jarayonida tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuvchanlik xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

1.Samarqand viloyati hududida to'plangan *T. fosteriana* va *T. ingens* turlarining turlararo morfologik o'zgaruvchanligini tahlil qilish;

2.Ushbu turlar tabiiy tarqalish areallarining chuqurlashtirilgan fitogeografik tadqiqotlarini olib borish;

3. Bioiqlimiy modellashtirish asosida turlar populyatsiyasining kelajakdagi dinamikasini prognozlash va ularni muhofaza qilishga qaratilgan samarali choralarni ishlab chiqish;

4. Piyozchalar va urugʻlarning sterilizatsiya jarayonlarini hamda ozuqa muhiti tarkibini optimallashtirish;

5. *T. fosteriana* va *T. ingens* turlarini *in vitro* sharoitida mikroklonal koʻpaytirish texnologiyasini ishlab chiqish ;

6. Introduksiya jarayonida *ex vitro* sharoitlarga moslashtirish boʻyicha tuproq parametrlari va ildiz hosil boʻlishini ragʻbatlantiruvchi stimulyatorlardan foydalanishni oʻz ichiga olgan adaptatsiya meʼyorlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Samarqand viloyatida tarqalgan madaniy lolalarning yovvoyi ajdodlari-*T. fosteriana* va *T. ingens* tanlandi.

**Tadqiqot predmeti** tirik oʻsimlik namunalari asoslangan morfologiyani oʻrganish, xaritalash, bioklimatik modellashtirish, sterilizatsiya, ozuqa muhitini optimallashtirish, patogensiz mikroklonlarni olish hamda lola turlarini mikroklonal koʻpaytirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari** sifatida dala, morfologik-qiyosiy, xaritalash, bioiqlimiy modellashtirish, statistik, laboratoriya, sterilizatsiya, *in vitro*, organogenez induktsiyasi, *ex vitro* va *ex situ* usullari qoʻllanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi :**

*T. fosteriana* va *T. ingens* turlarining Samarqand viloyatidagi tabiiy populyatsiyalarining morfometrik belgilari kompleks tarzda oʻrganilgan va ularning hududiy morfologik farqlari tizimli tahlil qilingan;

*T. fosteriana* va *T. ingens* turlarining fitogeografik holati Samarqand viloyati misolida chuqur oʻrganilib, ularning ilgari ilmiy adabiyotlarda qayd etilmagan 14 ta yangi uchrash hududlari aniqlangan;

turli iqlim ssenariylari sharoitida tadqiqot hududida tarqalgan obyektlarni 2040–2060 yillardagi populyatsiyasining tarqalish dinamikasi oʻrganilgan;

birinchi marta *T. fosteriana* va *T. ingens* piyozchalari va urugʻlarining *in vitro* sharoitida mikroklonal koʻpaytirish uchun sterillovchi jarayoni va ozuqa muhitining tarkibiy komponentlari kontsentratsiyasining normalari ishlab chiqilgan;

birinchi marta *T. fosteriana* va *T. ingens* uchun mikroklonal koʻpaytirish texnologiyasi yaratilgan;

ushbu turlarni *ex situ* sharoitida saqlash, shuningdek, ularni tabiiy yashash muhitiga qayta kiritish (reintroduksiya) boʻyicha takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

olingan *T. fosteriana* va *T. ingens* koʻchatlari *in vitro* sharoitida mikroklonal koʻpaytirish usuli bilan patogenlarsiz yetishtirildi va ular asosida tabiiy yashash joylarida dastlabki plantatsiya yaratildi;

bioklimatik modellashtirish bilan olingan natijalar asosida, ushbu turlarni tabiiy yashash joylariga qaytarish hisobga olingan holda ularni koʻpaytirish boʻyicha biotexnologik tavsiyalar berildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya natijalarining zamonaviy usullar va ilmiy yondashuvlar bilan mosligi, laboratoriya tadqiqotlarida zamonaviy biotexnologik usullar va jihozlardan foydalanish, tadqiqot natijalarining yetakchi

ilmiy jurnallarda, xalqaro va respublika konferentsiyalarida chop etilishi, dissertatsiya amaliy natijalarining tegishli davlat tashkilotlari tomonidan sinovdan o'tkazilishi hamda Origin Pro 7.5., ANOVA, ISTA va PAST dasturlarida ma'lumotlarni statistik tahlil qilish orqali tasdiqlanadi.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati Samarqand viloyati hududida o'suvchi *T. fosteriana* va *T. ingens* turlarining morfologik xususiyatlari hamda moslashuv mexanizmlari haqidagi bilimlar doirasini kengaytirishda namoyon bo'ladi. Olib borilgan tahlillar ushbu turlarni mahalliy o'sish sharoitlariga moslashuvchanligini tushunishga xizmat qildi. Piyoz va urug'larning sterilizatsiya usullarini ishlab chiqish hamda ozuqa muhitning optimal tarkibini aniqlash mikroklonal ko'paytirish va yovvoyi o'simliklarni muhofaza qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi hamda biotexnologiya sohasida yangi istiqbollarni ochadi. *In vitro* sharoitida ko'paytirilgan o'simliklarning issiqxona sharoitlariga moslashuvini o'rganish agrosanoat kompleksi va ekologiya uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqilgan mikroklonal ko'paytirish texnologiyasi mintaqaning biologik xilma-xilligini saqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa uning biotexnologiyalar va ekologiyani rivojlantirishdagi dolzarbligi bilan belgilanadi. Olingan natijalar noyob yovvoyi turlarni ko'paytirish va yetishtirish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi va biotexnologiyalarni amaliyotga joriy etishni osonlashtiradi. Tadqiqotda taqdim etilgan ma'lumotlar genetik xilma-xillikni hamda ekotizimlarning barqarorligini saqlashga hissa qo'shadi, ko'chatlar maydonini kengaytirish va yovvoyi turlarning hamda maxsus uskunalarning importiga qaramlikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda yangi imkoniyatlar ochadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, *in vitro* texnologiyalarni rivojlantirish, biologik xilma-xillikni saqlash va mintaqada biotexnologik yondashuvlarni ilgari surishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

"Samarqand viloyatining ba'zi yovvoyi lolalarini mikroklonal ko'paytirish biologiyasi, o'sishi va rivojlanishi" ni o'rganish natijasida olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan *T. ingens* va *T. fosteriana* turlarining mikroklonal ko'paytirish, o'sish va rivojlanishini o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqotlar davomida sterilizatsiya uchun optimal me'yorlar aniqlanib, piyozchalar va urug'lar shakllanishi uchun optimal ozuqa muhitlari ishlab chiqildi, shuningdek, akklimatizatsiya jarayonida yuzaga keladigan o'zgarishlar va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar va ilmiy tavsiyalar Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi "SAG AGRO" MChJ "Bog'bon" *in vitro* laboratoriyasida amaliyotga joriy etildi. Mikroklonlarni plantatsiyasini yaratish, ekish muddatlari va sxemalari, o'simliklarning o'sish va rivojlanishini o'rganish, shuningdek, fenologik kuzatishlarni o'tkazish bo'yicha

olingan ma'lumotlar "Omonqo'ton" Milliy tabiat bog'i amaliyotiga joriy etildi. *T. ingens* va *T. fosteriana* turlari bioqlimiy modellashtirish asosida GIS xaritalari ishlab chiqilib "Omonqo'ton" Milliy tabiat bog'i va Samarqand viloyatining Ekologiya, tabiatni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari boshqarmasining amaliy faoliyatiga joriy etildi (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, tabiatni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, 2024 yil 11 iyul, 03-03/3-6673 raqamli ma'lumot). Natijada, *T. ingens* va *T. fosteriana* turlarining Samarqand viloyatidagi tabiiy populyatsiyalarining morfometrik va fitogeografik o'zgaruvchanligi, bioqlimiy tarqalish dinamikasi, *in vitro* sharoitida mikroklonal ko'paytirish texnologiyasi, sterilizatsiya va ozuqa muhitining optimal parametrlari hamda *ex vitro* va *ex situ* sharoitlarda akklimatizatsiya me'yorlari aniqlanib, ularni saqlab qolish va himoya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan kompleks choralar ishlab chiqilgan.

*Tulipa* turkumining *T. fosteriana* va *T. ingens* turlariga oid 150 ta gerbariy namunasi asosidagi ma'lumotlar bazasi Global bioxilma-xillik ma'lumotlari tizimiga ([www.gbif.org](http://www.gbif.org), GBIF) joriy qilingan (Global bioxilma-xillik ma'lumotlari bazasi sertifikat, [www.gbif.org](http://www.gbif.org), 2025-yil 20-iyun, 044-sonli guvohnoma). Bu natijalar xalqaro ilmiy jamoatchilikka taqdim etilib, O'zbekiston florasining noyob va himoyaga muhtoj turlarini global miqyosda ilmiy qayd etish, ularga oid ochiq ma'lumotlar almashinuvi hamda ekologik monitoring jarayonlariga amaliy hissa bo'lib xizmat qilmoqda.

#### **Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.**

Ushbu tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilindi shu jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika.

#### **Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.**

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari (PhD) asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy, boshqa ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola.

#### **Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.**

Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya materialining hajmi 119 betni tashkil etadi.

### **DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish qismi** dissertatsiya ishining dolzarbligi va kerakligini asoslaydi, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligini, dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika va xorijiy tadqiqotlarni ko'rib chiqilishi, muammoning o'rganish darajasini, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetini, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishini, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

Dissertatsiyaning birinchi bobida «**Taksonomiya, ko'paytirish usullari va *in vitro* usuli yordamida lolalarni ko'paytirishni o'rganish tarixi**» lolalarning taksonomik holati, ko'paytirishning asosiy usullari va ularni *in vitro* usuli orqali

ko'paytirishni o'rganish tarixi yoritilgan. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida lolalarning vegetativ va generativ ko'paytirish usullari o'rganilgan. Ba'zi lola turlarini *in vitro* sharoitida mikroklonal ko'paytirish jarayonining nazariy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'simliklarni mikroklonal ko'paytirish usuli bilan ko'paytirishni o'rganish tarixi ham o'rganilgan.

Dissertatsiyaning "***T.fosteriana* W. Irving va *T.Ingens* Hoog turlarini mikroklonal ko'paytirish uchun sterilizatsiya usullari va optimal ozuqa muhitini tayyorlash usullari**" deb nomlangan ikkinchi bobida *T. fosteriana* va *T.ingens*ni yetishtirishda qo'llanilgan materiallar va usullar batafsil yoritilgan. Bob tadqiqot joyini ta'riflash, dala tadqiqotlari tavsifi bilan boshlanadi. Infeksiya xavfini kamaytirish uchun urug'lar va piyozlarni sterilizatsiya qilish usullariga, shuningdek, organogenez va eksplantlarning moslashuvini stimullash uchun turli xil konsentratsiyali fitogormonlar bilan optimal ozuqa muhitini tayyorlashga alohida e'tibor beriladi. Bob eksperimental ma'lumotlarni statistik qayta ishlash usullarini tavsiflovchi bo'lim bilan yakunlanadi, bu mikroklonal ko'paytirishda ishlab chiqilgan usullarining natijalari va samaradorligini obyektiv baholash imkonini berdi.

Tajriba R.G.Butenko (1964) metodikasiga asoslangan holda o'tkazildi. Ozuqa muhiti 121°C haroratda va 1 atmosfera bosim ostida 20 daqiqa davomida avtoklavda sterilizatsiya qilindi, Duchefa & Biochemie kompaniyasining bir martalik plastik idishlari esa etil spirti bilan ishlov berildi. Ob'yektlar bilan manipulyatsiyalar BIOBASE laminar-boksida, yuzalar 94% li spirt bilan ishlov berilgan holda amalga oshirildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, eksplantlarni sterillalsh uchun avval sovun eritmasida (20 daqiqa), so'ngra kaliy permanganatda (15 daqiqa) va oqar suvda (50-60 daqiqa) yuvildi. Urug' uchun sterillovchi komponentlar majmuasiga quyidagilar tanlab olindi: 1) *T. fosteriana*-Domestos (5%) -10,20,30 daqiqa, fundazol (1,20 g / l) -8,10,12 daqiqa, streptomitsin (1 g/l)-6,8,10 daqiqa, etanol (70%) -20,40,60 soniya 3 marta va kumush nitrat (0,4%)-8,10,12 soniya 3 marta 2)*T. ingens* - Domestos (5%) -10,20,30 daqiqa, fundazol (1,20 g/l)-9,11,13 daqiqa, streptomitsin (1 g/l)-7,9,11 daqiqa, etanol (70%) -25,45,65 soniya 3 marta va kumush nitrat (0,4%) -9,11,13 soniya 3 marta. Piyozchalar uchun ekspozitsiya: 1) *T. fosteriana* - Domestos (5%)-10,20,30 daqiqa, streptomitsin (1 g/l)-5,8,10 daqiqa, fundazol (1,20 g/l)-6,8,10 daqiqa va vodorod peroksid (5%)-30,50,70 soniya 3 marta; 2) *T. ingens*-Domestos (5%)-10,20,30 daqiqa, streptomitsin (1 g/l)-6,9,11 daqiqa, fundazol (1,20 g/l)-7,9,11 daqiqa va vodorod peroksid (5%)-35,55,75 soniya 3 martadan. Har bir sterilizatsiya bosqichida eksplantlar ishlov berilgandan so'ng distillangan suvda yuvildi.

Tadiqotning kulturaga induksiya qilish bosqichida, eksplantlar tarkibidga BAP (0,5 mg/l) saqlaydigan muvofiqlashtirilgan MS (Murashige va Skoog) ozuqa muhitiga ekildi va mikroklonlar soniga nisbatan oshishi uchun ikki turdagi lolalar uchun alohida muvofiqlashtirilgan tarkibida BAP 1 mg/l saqlaydigan MS muhitiga asoslangan va ozuqa muhiti tarkibi konsentratsiyasi bilan dastlabki DKW (Driver-Kuniyuki Walnut) ozuqa muhitidan farq qiladigan optimallashtirilgan ozuqa muhitidan foydalanildi.

Eksperimental jarayon davomida, eksplantlar (piyozchalar) steril ravishda 25°C da ekilgan va 3 oy davomida oʻstirilib kuzatilgan. Urugʻ eksplantlari muzlatgichda 5°C da 16-80 kundan boshlab qogʻoz salfetkalarda (50 donadan) stratifikasiyalangan. Statistik ishlov berish ANOVA, Excel 2010, ISTA, PAST va Kruskal-Uollis testlaridan foydalangan holda standart usullar bilan amalga oshirildi. Tajribalar eksplantning soni 20-30tadan uchta takrorlanishida oʻtkazildi, natijalar  $p < 0,05$  ishonchlilik darajasida 3 ta takrorlanishning oʻrtacha qiymatlari sifatida umumlashtirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Oʻrganilayotgan obʻektlarning morfologik tahlili, fitogeografiyasi, oʻsishi, rivojlanishi va mikroklonal koʻpayishi natijalari”** *T. fosteriana* va *T. ingens*ning morfologiyasi, fitogeografiyasi, oʻsishi, rivojlanishi va mikroklonal koʻpayishini oʻrganishga bagʻishlangan. Morfologik tahlil natijalari, fitogeografik tarqalish, tabiatda va tajriba maydonchalarida oʻsish va rivojlanish xususiyatlari keltirilgan. Sterillovchi moddalar, stratifikasiya va fitogormonlarning *in vitro* kulturasida koʻpayishiga taʼsiri, shuningdek, urugʻlar va eksplantlarning unib chiqishi, mikroklonlarning ildiz otishi va ularni tuproq sharoitlariga moslashishi koʻrib chiqilgan.

Tadqiqot ishining metodologik asoslari sifatida, urugʻlarning tuproq unuvchanligini, ochiq yerga muvofiqlashtirilgan M.K.Firsova usuli (1970) yordamida tayyorlangan tuproqqa ekish va unib chiqqan urugʻlarning foizdagi koʻrsatkichlarini hisobga olish yoʻli orqali aniqlandi.

Tajriba davomida, urugʻlarni tuproqqa samarali ekish chuqurligini oʻrganayotganda, *T. fosteriana* va *T. ingens* turlari uchun 4,5-5,0 sm chuqurliklarida (*T. fosteriana* uchun — 39,2%, *T. ingens* uchun — 30,4%) yuqori unib chiqish darajasi kuzatilganligi aniqlandi. Nihollarning unib chiqishi past boʻlgan koʻrsatkichi 7,5-8,0 sm chuqurlik etib qayd etilgan (*T. fosteriana* uchun 9,8 % va *T. ingens* uchun 8,3 %). Piyozchalarni ekish chuqurligini tahlil qilayotganda, *T. fosteriana* va *T. ingens* nihollarining yuqori unib chiqish foizi 13-15 sm chuqurlikda kuzatilib, ikkala tur uchun ham mos ravishda 82,5% va 86,0 % ga yetdi, bu esa bu chuqurliklarning unib chiqishiga ijobiy taʼsirini koʻrsatadi.

Urugʻlarning 16-80 kunlik (1-jadval) va piyozchalar eksplantlari 12-130 kunlik stratifikasiya natijalarini oʻrganganimizda unib chiqishi uchun optimal stratifikatsiya davrlarini aniqlashga erishdik (2-jadval).

**1-jadval**  
***T. fosteriana* va *T. ingens* urugʻlarining tuproqda unib chiqishi koʻrsatkichlari**  
**(n=20, t=+5°C)**

Turning ilmiy nomi	Stratifikasiya davri	Ekishdan unib chiqishgacha boʻlgan davr	Yashovchan	Yaroqsiz	Nekrotik
<i>T.ingens</i>	16 kun	65-69 kun	4,3 ± 0,2	2,1 ± 0,05	2,3 ± 0,2
<i>T.fosteriana</i>		61-63 kun	3,6 ± 0,21	2,1 ± 0,05	2,4 ± 0,1
<i>T.ingens</i>	51 kun	22-25 kun	15,1±0,01	4,2±0,01	1,03±0,05
<i>T.fosteriana</i>		26-29 kun	14,0±0,02	4,1±0,02	2,1±0,05
<i>T.ingens</i>	80 kun	47-49 kun	9,7 ± 0,6	4,2 ± 0,01	1,03 ± 0,05

<i>T.fosteriana</i>		50-55 kun	8,7±0,4	4,1±0,02	2,1±0,05
---------------------	--	-----------	---------	----------	----------

Izoh: tajribalar M.K.Firsova metodi va dispersion tahlillarga asoslangan (ANOVA).

## 2-jadval

### *T. fosteriana* va *T. ingens* piyozchalarining tuproqda unib chiqishi ko'rsatkichlari (n=20, t=+5°C)

Turning ilmiy nomi	Stratifik asiya davri	Ekishdan unib chiqishgacha bo'lgan davr	Yashovchan	Yaroqsiz	Nekrotik
<i>T.ingens</i>	12 kun	61-63 kun	13,0±0,05	4,0±0,02	2,4±0,03
<i>T.fosteriana</i>		65-71 kun	12,7±0,04	4,2±0,03	2,6±0,03
<i>T.ingens</i>	90 kun	25-28 kun	18,01±0,01	1,2±0,03	1,1±0,02
<i>T.fosteriana</i>		23-26 kun	16,2±0,04	2,3±0,01	2,2±0,03
<i>T.ingens</i>	130 kun	45-49 kun	9,1±0,05	3,1±0,03	2,2±0,04
<i>T.fosteriana</i>		37-39 kun	8,1±0,03	3,5±0,04	2,5±0,05

Izoh: tajribalar M.K.Firsova metodi va dispersion tahlillarga asoslangan (ANOVA).

*In vitro* sharoitida ko'paytirilgan lola eksplantlarida sterillovchi moddalar konsentratsiyasi va optimal miqdorlari o'sish va rivojlanishga ta'siri yuqori samaradorlik - 90% gacha muvaffaqiyatli o'sishni ta'minlandi (3-6-jadval).

Standart og'ishni (SD) hisoblash Karl Fridrix Gauss tomonidan ishlab chiqilgan dispersiya nazariyasining formulalariga asoslanadi-o'rtacha  $x = \sum x_i / n$ , dispersiya  $S^2 = \sum (x_i - \bar{x})^2 / n - 1$  va standart og'ish  $SD = \sqrt{S^2}$ , bu yerda namunalar uchun Bessel (n-1) tuzatish qo'llaniladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, biz 5%li Domestos eritmasi bilan eksplantlarni 20 daqiqa davomida ishlov berdik (3-jadval).

## 3-jadval

### *T. ingens* va *T. fosteriana* eksplantlarini sterilizatsiya qilish usullari natijalari

Eksplant	Nazorat		I variant		II variant		III variant	
	Sterilla r soni	Samaradorlik (%)	Sterillar soni	Samaradorlik (%)	Sterillar soni	Samaradorlik (%)	Sterillar soni	Samaradorlik (%)
<i>T.ingens</i> urug'lari	2,1±0,1	21,0	6,7±0,2	67,0	8,6±0,4	86,0	3,2±0,3	32,0
<i>T.fosteriana</i> urug'lari	1,1±0,1	11,0	4,3±0,2	43,0	9,5±0,5	95,0	3,2±0,1	31,0
<i>T.ingens</i> piyozlari	2,2±0,1	22,0	5,8±0,3	58,0	9,5±0,2	95,0	3,1±0,2	31,0
<i>T.fosteriana</i> piyozlari	4,1±0,05	41,1	6,0±0,02	60,0	9,1±0,04	91,0	2,3±0,01	23,0

Izoh: har bir tajriba uchun ishlov berilgan piyozcha va urug'larning umumiy soni 10 tadan.

*In vitro* tajribalarda BAPning (0,1-1,0 mg/l) turli konsentratsiyalari *T. fosteriana* va *T. ingens* lola turlarida kurtak hosil bo'lishiga ta'siri o'rganilganda 0,5 mg/l konsentratsiya eng samarali bo'ldi. Bu esa 0,2 va 0,9 mg/l konsentratsiyalariga nisbatan optimal natija sifatida qayd etildi. *T. fosteriana* turida o'rtacha 6,1 ± 1,1 mm uzunlikdagi va 1,0 ± 0,1 ta yon kurtaklari mavjud bo'lgan 8,0 ± 2,3 ta nihollar shakllangan. *T. ingens* turida esa novdalar soni 6,0 ± 1,8 tani, ularning uzunligi esa 5,8 ± 2,0 mm ni tashkil etgan bo'lib, har bir niholda o'rtacha

1,0 ± 0,1 ta qo‘shimcha kurtaklar kuzatilgan. BAP(benzilaminopurin) gormoni konsentratsiyasining 0,2 mg/l gacha pasaytirilishi yoki 0,9 mg/l gacha oshirilishi kurtaklar soni va ularning uzunligi ko‘rsatkichining qisqarishiga olib kelgan. Shuningdek, qo‘shimcha kurtaklarning soni ham sezilarli darajada kamaygani aniqlandi (1–2-rasmlar).



**1-rasm.** BAP(benzilaminopurin)ning turli konsentratsiyalarining novda shakllanishiga ta'siri.



**2-rasm.** *T. fosteriana* va *T. ingens*ning urug'idan novdalash (MS-BAP-0.5 mg/l): A) 2 oylik, B) 3.5 oylik ko'rsatkichlari.

Eksplantlarning regeneratsiyasini ta'minlash maqsadida tarkibida turli darajadagi fitogormonga ega, oldindan muvofiqlashtirilgan Murashige va Skoog (MS) hamda Driver–Kuniyuki Walnut (DKW) ozuqa muhitlaridan foydalanildi (4–jadval).

**4-jadval**  
**MS va DKW ozuqa muhitlarining *T. ingens* va *T. fosteriana* turlarining o'sish ko'rsatkichlariga ta'siri**

Ozuqa muhitining turi	Ko'payish koeffitsienti (n=3)	O'simta uzunligi, mm	O'sish bosqichining davomiyligi (kun)	Tadqiq etilgan tur
MS	7.4±0.5	1.5-1.7	42-45	<i>T. ingens</i>
DKW	8.1±0.4	2.5-2.8	43-45	<i>T. ingens</i>
MS	7.8±0.1	1.5-1.7	55-57	<i>T. fosteriana</i>
DKW	8.3±0.4	2.1-2.5	50-57	<i>T. fosteriana</i>

Izoh: har bir muhit turi uchun n=3, p<0,05.


O'simliklarning *ex vitro* sharoitga moslashuv darajasini baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, *T. fosteriana* turida yashab qolish ko'rsatkichi 70–92% ni tashkil etgan bo'lib, kurtaklarning uzunligi 6,5–8,1 mm oralig'ida bo'lgan. *T. ingens* turida esa mos ravishda yashab qolish darajasi 75–95% gacha, kurtak uzunligi esa 6,8–8,4 mm gacha yetdi. 2:1:1 (torf : vermikulit : perlit) nisbatidagi substrat va 0,5 mg/l konsentratsiyadagi IBA (indol-3-butirik kislota) bilan ishlov berilgan holda

har ikkala turda ham ildiz otish ko'rsatkichi 83–86% oralig'ida qayd etildi (3-rasm).



**3-rasm. Nihollarning ildizlanish davridagi substratga moslashuvi (adaptatsiyasi).**

Fitogeografik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, *Tulipa* L. turkumiga mansub turlarning tarqalish xususiyatlarini o'rganish va ularning noyob fitogeografik zonalarini saqlab qolish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, *Tulipa ingens* turining tabiiy tarqalish areali G'arbiy Pomir-Oloy tizmasiga (Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston) to'g'ri keladi. Uning asosiy tarqalish hududlari Janubiy O'zbekiston (Zarafshon va Hisor tog' tizmalari), shuningdek, Tojikiston va Turkmanistonning chegaradosh mintaqalarini o'z ichiga oladi. Mazkur tur uchun qayd etilgan tarqalish maydoni 20 000 km<sup>2</sup> dan kamni tashkil etadi. Olib borilgan fitogeografik tadqiqotlar davomida mazkur lola turining ilgari adabiyotlarda qayd etilmagan yangi o'sish areallari aniqlanganligi bilan ilmiy jihatdan ahamiyatlidir (4-rasm).




**4-rasm. Samarqand viloyatida *T. ingens*ning o'sish joylari.**

Ushbu joylar Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari chegarasidagi tog'li hududlarda joylashgan bo'lib, yangi *T. ingens* joylariga mos keladi.

Fitogeografik kuzatuvlar natijasida, *T. ingens* turining Samarqand viloyatida joylashgan yangi tabiiy o‘shish areallari aniqlanib, ularning geografik koordinatalari quyidagicha qayd etildi: 39°28'47.06"N 66°38'34.57"E, 39°29'56.88"N 66°45'33.72"E, 39°27'52.17"N 66°47'30.31"E, 39°26'32.71"N 66°55'6.94"E, 39°28'3.40"N 66°48'49.59"E va 39°29'8.12"N 66°39'28.31"E. Ushbu koordinatalar *T. ingens* turining G‘arbiy Pomir–Oloy tog‘ tizmasiga (Tojikiston, O‘zbekiston) xos janubiy fitogeografik zonalarda tarqalish arealini kengaytirayotganini ko‘rsatdi hamda uning ekologik moslashuvchanligini tasdiqlab berdi.

